

## NAVOIY NAZMINING O'ZIGA XOS NAVOLARI (ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDAGI SHE'RIY SAN'ATLAR)

**MUXAMATOVA Dilbar Xayot qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti talabasi

[muxamatovadilbar@gmail.com](mailto:muxamatovadilbar@gmail.com)



<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2023-2-232-235>

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi ba'zi g'azallar sharhi baytma-bayt ochib beriladi. Shoirning she'riy mahoratiga alohida e'tibor berilgan.*

*Kalit so'zlari: Navoiy, tamsil, tazod, tashxis, tajohil ul-orif, tashbeh.*

### ABSTRACT

*This article is a verse-by-verse review of some ghazals from Alisher Navoi's book "Gharayib us-sigar". Special attention was paid to the poet's poetic skill.*

*Key words: Navai, tamsil, tazad, tashkhis, tajahil ul-arif, tashbeh.*

### KIRISH

“Badiiy san’atlarning ikkinchi bir katta guruhi bu birlamchiligiga asoslanib, badi’ ilmida ma’naviy san’atlar deb yuritiladi. Y. Is’hoqov tasnifida ular istiora viy – ramziy tasvir usullari (majoz, istiora, kinoya, baroati istehlol), qiyosiy-assotsiativ usullar (tashbeh, talmeh, tansiqlik ul-sifot), fikrni dalillash yo’llari (husni ta’lil, tamsil, irsoli masal), emotional-mubolag’aviy tasvir usullari (mubolag’a, ruju, murojaat, savol-javob, tashbehning ayrim turlari), degan yana bir nechta turlarga bo’ladi. Tashbeh, istiora, mubolag’a kabi san’atlar nafaqat Alisher Navoiyning balki butun Sharq adabiyoti vakillarining ajralmas poetik usullaridan biri bo’ladi. Tashbeh-biron predmet yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyat bor boshqa narsa va hodisalar orqali tasvirlashga qaratiladi”<sup>1</sup>

Zor jismimg’a xadanging zaxmidin ortar navo,  
Sozdekkim, teshsalar oni fuzun aylar sado.

Avvalo har qanday san’atni toppish oldidan baytning ma’nosini bilish kerak, albatta. Baytni quyidagicha tabdil qilsak bo’ladi: Ma’shuqa tomonidan otilayotgan

1

Мардонова, X. A. Navoiy g'azallarida ma'naviy san'atlarning qo'llanishi / X. A. Мардонова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 11 (353). — С. 262-264. — URL: <https://moluch.ru/archive/353/79122/>

o'qlar oshiq oh-nolalarini orttirdi, go'yoki nayning qancha ko'p teshishsa, undan ko'p navo chiqqani kabi.

Tashbeh-Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniq, izchil, go'zal, jozibali gavdalantirishga xizmat qilib, asarda qo'llanayotgan timsollarning ma'naviy qiyofasini yanada yorqinroq tasvirlash, shoir ifodalayotgan g'oyani o'quvchi ongiga mukammalroq, aniqroq va jozibaliroq yetkazishga imkon beradi.

Ushbu matla'da shoir –dek vositasi orqali tashbeh she'riy san'atini yuzaga chiqarib, o'zini soz(nay)ga qiyos etyapti.

Tamsil "misol keltirish", "dalillash", "isbotlash", "tasdiqlash" ma'nolarini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat - mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'lib, ijodkor diqqati ham badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi o'xshashlikka qaratilgan bo'ladi. Jumladan, ushbu baytda nayning teshigi ortgani sari ko'proq navo chiqarishiga oshiqning holati qiyoslangan.

Qaddi hajrida g'amim sham'ini har devorg'a,  
Kim tayabmen sarv andomi bila bo'lmish qaro.

Mazmuni: Ma'shuqaning qaddining hajrida mening g'amim shami devorga tayantirib qo'yilsa, tik devor qaro bo'ladi.

**Tanosub** - she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamidagina to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi.

Baytda hajr, g'am so'zlari o'zaro tanosublikni hosil qilgan.

G'unchang anfosi nasimi zavraqi jon qasdig'a  
Yetkurur har dam adam daryosidin mavji fano.

Mazmuni: Labingdan chiqayotgan nafaslar nasimi jonimga qads qilib, yo'qlik daryosiga foniy mavjlarni yetkazyapti.

**Istiora** ([arabchadan](#) „qarzga olish“) — asarlarda soʻzni oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼnoda, yaʼni majoziy maʼnoda qoʻllash sanʼati. Bu sanʼat soʻz maʼnolari koʻchishining bir turi boʻlib, u narsa va hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih sanʼatiga yaqin turadi. U koʻpincha tashbihi kinoyaga, yaʼni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi. Adabiyotshunoslikda istiora tashbihdan kuchli sanaladi.<sup>2</sup>

Baytda esa “gʻuncha” soʻzi orqali lab maʼnosi ifodalangan. Bu esa istiora sheʼriy sanʼatini hosil qiladi.

Orzuyi vaslidin ranjur erur munglugʻ koʻngul,  
Qut uchun tazvir ila bemor boʻlgʻondek gado.

Mazmuni: Sening vasling umidida bechora koʻngul kasal boʻldi , goʻyoki tilanchi qut (yemish) toppish maqsadida oʻzini bemorga solgani kabi.

Ushbu baytda Navoiy hayotiy manzaradan nazmiy ifoda yarata olgan. Baytda tamsil,tashbeh, sifatlash kabi sheʼriy sanʼatlar bor.

Nega yigʻlab anbariy zulfin kesar hijron tuni,  
Oʻlimgimni anglabon gar shamʼ tutmaydur azo?

Mazmuni: Oʻlimimni koʻrib hijron tuni qora zulfini kesar ekan, sham qanday azo tutmasligi mumkin?

**Tajohuli orifona** (arab. bi lib turib bilmaslikka olish) — mumtoz sheʼriyatda oʻxshatish usullaridan biri; shoir oʻxshatish manbaini kuchaytirib, boʻrttirib koʻrsatish maqsadida oʻsha manbaga (odatda yorga, mahbubaga) nisbatan bir yoki bir necha oʻxshatish qoʻllaydi, lekin goʻyo oʻzini nodon kishilarcha tutib, oʻzini bilmaslikka solib, ushbu oʻxshatishlarining toʻgʻri-notoʻgʻriligi haqida boshqalardan soʻraydi.

Ushbu baytda ham shoir oʻlim jarayonida barcha aza tutushini biladi, ammo bilmaslikka olib, qayta soʻraydi.

**Tashxis** (arab. — shaxslantirish) — jonlantirish badiiy sanʼatining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, oʻsimliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni koʻchirish sanʼati.

Baytda tun, sham obrazlari garchi jonsiz boʻlsa-da, insonlarga xos harakatlarni bajarib,tashxis sheʼriy sanʼatini vujudga keltirgan.

<sup>2</sup> Wikipediya.uz

---

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1 Hojiahmedov A. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" - Toshkent. "Sharq", 1998
- 2 Rahmonov V. "She'riy san'atlar" 1962
- 3 Rustamov A. "Qofiya nima?" (1976), "Navoiyning badiiy mahorati" (1979).
4. Alisher Navoiy. "G'aroyib us-sig'ar"